

2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



Ro'yxatga olindi: № BD 60211400-1.09

202__ yil “__” _____

OPERA TAYYORLOV MASHG'ULOTI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 - San'at va gumanitar fanlar*

Ta'lim sohasi: *210 000 - San'at*

Ta'lim sohasi: *60211400 - Vokal san'ati: akademik xonandalik*

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi OTM1641	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-8	ECTS-Kreditlar 41	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 3-5-6-8-12	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Opera tayyorlov mashg'uloti	630	600	1230
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Opera tayyorlovi mashg'uloti fanining asosiy maqsadi - Akademik xonandalik ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga opera sahnasiga chiqish uchun barcha kerakli ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat. Ushbu fan boshqa mutaxassislik fanlari qatorida talaba o'z ixtisosligini egallashda, ijrochilik madaniyatini shakllantirishda, professional mahoratini oshirishda yordam beradi. Talabaning malakali mutaxassis bo'lib yetishishida opera tayyorlov mashg'uloti fanining roli juda katta ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu dars jarayonida talaba berilgan partiya (rol) ustida ishlashni o'rganishi, kompozitor yaratgan obrazni musiqiy va aktyorlik ko'nikmalari bilan ochib berishi darkor. Opera tayyorlovi mashg'ulotlari ikkinchi kursdan to'rtinchi kursgacha o'tiladi. Talaba dirijyor va rejissyor rahbarligida opera partiya ustida ishlash uslubini o'rganadi, kompozitor yaratgan vaziyatlarni uyg'unlik harakatlarida ko'rsata olishni bilishi kerak.</p> <p>II. Asosiy qism</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>Kirish</p> <p>Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan: tabiiy xonanda-sahnaviy va harakat qonuniyatlari asosida opera partiyasi ustida ishlash uslubiyoti; spektakl paytida dirijyor bilan o'zaro harakat asoslarini o'rganish; jahon va o'zbek operalarining rivojlanish manbai haqida tasavvurga ega bo'lishi; turli davrlar va mamlakat kompozitorlarining o'ziga xos milliyligini va uslubiyotini o'rganish; bir necha operada orkestr bilan obrazlar dramaturgiyasini o'rganish; katta sahnada sherik bilan ishlash jarayonida kiyim elementlari va rekvizit yordamida xarakterni yaratish; ashulachilik, aktyorlik mahorati va plastik erkinliklarning o'zaro uyg'unligi ustida ishlash bilishi va ulardan foydalana olishi; spektaklda partnyorlar, xor bilan, grim, kostyumda va dekorasiya bilan xonandaning harakati; sahnada orkestr bilan ishlash; opera partiyasida va operadan</p>			

parchada tabiiy vokal-sahnaviy harakatni topish; kichik musiqiy vokal parchasini ijro etish va harakatlarni izlash; kichik yakkaxon parchasini ijro etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

1-Modul. Opera tayyorlovi mashg'ulotlari asoslari

1-mavzu. Opera ijro etishning nazariy qismi

O'rgatilayotgan asarlarni musiqiy tahlili, yakka va jamoa ijrochiligining o'zaro uyg'unligi, xonandalar jo'rnavozligi, o'zaro ta'siri, musiqiy tovush sofligi, ijro maxoratini oshirish usullari va turli operalar haqida tasavvurga ega bo'lish. Orkestr jo'rligida kuylash, yakka va jamoa ijrochiligining o'zaro uyg'unligi ustida ishlash, repertuarni yoddan bilish, duet, trio, kvartet va kvintet bo'lib kuylay olish.

2-mavzu. Opera, konsert xonandalarini tarbiyalash va tayyorlash asoslari

Opera, konsert xonandalarini, xor xonandalarini tarbiyalash va tayyorlash asoslari: o'rgatilayotgan asarlarni tahlil qilish, qo'shiqchilik tarbiyasiga ahamiyat qilish, hamda ularni konsert va opera sahnalariga to'g'ri tayyorlash asoslarini yaratib berish. Talabanning ijro mahoratini shakllantirish, texnikasini o'stirish maqsadida doimiy ravishda asosiy asarlarga qo'shimcha tarzda vokalizlar tavsiya etiladi. Tavsiya etilayotgan vokalizlar talabanning ijrodagi zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-mavzu. Ijodiy ijrochilikni va repertuarlarni takomillashtirish

Har bir talabanning ovoz tabiatini o'ziga xosligini inobatga olib, ovoz ustida ishlash va shunga qarab to'g'ri repertuar tanlash. Tanlangan dasturlarni bosqichma-bosqich murakkabligini takomillashtirish.

4-mavzu .Yakka va jamoa bilan ishlashning o'zaro uyg'unligi

Akademik yo'nalishida kuylash. Xor, orkestr va yakkaxon xonanda jamoa bo'lib kuylash asoslarini o'rgatish, hamoxanglikda ansambl bo'lib kuylash.

5-mavzu. Sahna madaniyatiga rioya qilish

Sahnaga chiqib kuylash uchun sahna ko'rinishiga: kiyinish, turish, kirish, chiqish, ta'zim qilish qoidalariga rioya qilish. Kuylash jarayonida asarlarga mos va xos hatti-harakat bilan obrazli kuylash. Qutilmagan hollarda sahna madaniyatini saqlab qolish.

6-mavzu. Opera partiyalarini tanlash

Opera partiyalari dirijyor va rejissyor, ixtisoslik o'qituvchisi bilan birga talabanning imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda tanlab olinadi. Talaba rolni (obrazni) tahlil qilishni o'rganishi kerak. Musiqiy spektaklda obrazni yaratish uchun ovoz, so'z, hatti-harakatning uyg'unligi zarur. Opera mashg'ulotlarida ovoz chiqarish, sahna xarakati

bilan birga dirijyor bilan boqliqligini o'rganadi. 2-kurs davomida tayyorlangan opera parchasini talaba bahorgi va yozgi reyting nazoratida topshiradi va baholaniladi. Talabalar 3-kursda diplom spektaklda qatnashishlari zarur. Ular uchun bu juda foydali, chunki spektakldagi sharoitlar teatr muhitiga yaqin. O'quv yilining oxirida talaba spektaklda yoki spektaklning bir yoki ikki aktida tayyorlagan opera partiyani ijro etishi kerak. 3-kurs talabalari musiqada harakatlanishni, obraz xulqining mantiqligini, obrazga so'z va musiqa orqali kirishni, vokal-ssenik rolni yaratishni ko'rsatish zarur. 3-kurs reyting nazorati nihoyasida aytilgan opera partiyasi ijro saviyasiga qarab, unga opera yoki konsert-kamer profili beriladi. 4-kursda diplom spektakli tayyorlanadi.

7-mavzu. Spektaklning sahnalashtirish jarayoni

Diplom spektakli ustida ishlash davomida talaba barcha ma'naviy-ijodiy tamoyillarni o'zlashtirganligini ko'rsatadi. Shu paytda nafaqat o'z partiyasini, balki partiturani ham o'rganishi kerak, chunki diplom spektakli orkestr jo'rligida sahnalashtiriladi va talaba orkestr ovozlari eshitish kerak. Talaba portnyorlari bilan birgalikda harakat qilishi zarur, ularni sezib, eshitib, ular bilan professional darajada spektaklni namoyish etishi zarur. Davlat Attestatsiyaga bitiruvchi 1 opera obrazini, o'ta iqtidorli talabalar 2 opera obrazini topshirishlari kerak.

8-mavzu. Asar muallifi haqida ma'lumotlarni qidirib topish

Opera tayyorlovi mashg'uloti fani repertuarida kuylanadigan barcha operalar muallifi haqida ARM va internet orqali ma'lumotlar to'plash.

9-mavzu. Fanatekadan va audio yozuvlardan samarali foydalanish

Dars jarayonida o'zbek va jahon opera san'atida ko'zga ko'ringan jamoalarning ijodi hamda muvofiqiyatlari haqida audio, video va internet musiqa saytlarini qo'llash.

10-mavzu. Musiqiy asarning intonatsion sofligi

Asarlarni kuylash jarayonida melodik va garmonik musiqiy jumlar hamda akkordlar tiniqligiga erishish. Orkestr va jamoa ijrosida intonatsion soflikka erishish.

11-mavzu. Orkestr bilan ishlash jarayoni

Orkestr bilan ishlash jarayonida xonanda e'tiborli bo'lib xatolikka yo'l qo'ymasligi zarur. Orkestrni va o'z sheriklarini eshtishi kerak. Birinchi o'rinda tartib va ovoz sofligiga e'tibor berishi lozim.

12-mavzu. Dirijyor ko'rsatmasiga amal qilish

Dirijyor o'z sohasining yetuk mutaxassisi, bilimli va ilimli, intiluvchan va izlanuvchan talabchan bo'ladi uning ko'rsatmalariga amal qilish zarur. Opera tayyorlovi mashg'uloti fani oldiga qo'yilgan asosiy masala bu bo'lajak opera ijrochilarini opera spektakllariga va konsert ijrochilik faoliyatiga tayyorlashdir. Opera spektakllari jamoaviy tarzda ijro etishni o'z ichiga olganligi sababli, magistratura

bosqichi talabalari barchasi ishtirok etadi (1-2bosqichlar). Shuning uchun opera tayyorlovi mashg'uloti mahorati fani bo'yicha dastur talablari yani opera spektakllar barcha bosqichlarga bir xilda beldilanadi. Opera tayyorlovi mashg'uloti mahorati bo'yicha repertuar har yili yangilanib turiladi.

2-Modul. Opera ijro etishning amaliy asoslari

13-mavzu. Davlat imtihoni uchun ijro etilayotgan opera spektakli tuzilishi, qismlarga, elementlarga bo'lib va to'liq ishlash bosqichlari

Opera partiyalari dirijyor va rejissyor, ixtisoslik o'qituvchisi bilan birga talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda tanlab olinadi. Talaba rolni (obrazni) tahlil qilishni o'rganishi kerak. Musiqiy spektaklda obrazni yaratish uchun ovoz, so'z, hatti-harakatning uyg'unligi zarur. Opera mashg'ulotlarida ovoz chiqarish, sahna xarakati bilan birga dirijyor bilan boqliqligini o'rganadi.

14-mavzu. Davlat imtihoni uchun ijro etilayotgan opera spektakli sahnalashtirish

Sahnaga chiqib kuylash uchun sahna ko'rinishiga: kiyinish, turish, kirish, chiqish, ta'zim qilish qoidalariga rioya qilish. Kuylash jarayonida asarlarga mos va xos hatti-harakat bilan obrazli kuylash. Qutilmagan hollarda sahna madaniyatini saqlab qolish.

15-mavzu Davlat imtihoni uchun tanlangan spektaklini sahnada ijro etish

Diplom spektakli ustida ishlash davomida talaba barcha ma'naviy-ijodiy tamoyillarni o'zlashtirganligini ko'rsatadi. Shu paytda nafaqat o'z partiyasini, balki partituraning ham o'rganishi kerak, chunki diplom spektakli orkestr jo'rligida sahnalashtiriladi va talaba orkestr ovozlari eshitish kerak. Talaba portnyorlari bilan birgalikda harakat qilishi zarur, ularni sezib, eshitib, ular bilan professional darajada spektaklni namoyish etishi zarur. Davlat Attestasiyaga bitiruvchi 1 opera obrazini, o'ta iqtidorli talabalar 2 opera obrazini topshirishlari kerak.

III. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

	<ul style="list-style-type: none"> - yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o‘rganish; - faol o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari (ishbilar o‘yinlar, kollokviumlar va b.). <p>Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta’lim resurslaridan, ta’lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg‘armasidan, re’petitoriyalardan, o‘quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.</p> <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakl va mazmuni</p> <p>Darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o‘rganish. Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismlarini o‘zlashtirish. Talabalarning mustaqil ta’limlari har bir ma’ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o‘rganish jarayonida mustaqil ta’limlarning bir necha turlaridan foydalaniladi:</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Akademik xonandalik ijrochiligi faoliyati (opera yakkaxoni, operalardan konsert ijrochiligida foydalanish, xonanda-tadqiqotchi, o‘qituvchilik) turlari; opera xonandalik ijrochiligining asosiy uslublari, opera ijrochilik janrlari haqida tasavvurga ega bo‘lish kerak; • Opera san’ati, opera partiyalarining o‘ziga hosligi, uning vokal liniyalarini; sahnaviy obrazni yaratishda opera teatri sahnaviy ijodning tizimli nazariy bilimlarini xonanda-aktyor bilishi; muhim bo‘lgan vokal soxasining janrlarini bilishi kerak; • Turli millat vokal maktablari, ijro an‘analarini, opera asarlari tarixi va kompozitorlik ijodiyotini haqida ta’savvurga ega bo‘lgan holda, berilgan operadagi obrazlarni ijro etishi kerak; • Operani ijro etish vaqtida dirijyor va rejissyor ko‘rsatmalariga amal qilish; • Opera musiqasini tinglash va ularni tahlil qilish, uni ovoz orqali ijro etish; musiqiy manbalar bilan ishlash va ijodiy yondashish; musiqiy tafakkur asosida ovoz orqali obraz fikrini bayon etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va ijro qilish uchun loyihalar.

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, ijro etish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy imtixonni topshirish.

Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar

Talabalar bilimini nazorat qilish o‘quv rejaga muvoffiq belgilangan. Oraliq va yakuniy nazorat 3,4,5,6,7,8 semestrlarda o‘tkaziladi.

3-4 chi semestr

Oraliq nazorat

1. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini kichik parchasini talabaga berilgan o‘z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma’noli, ifodali, badiiy fortepiano jo‘rligida kuylab berish. (arioza yoki duet, trio)
2. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini parchasidan kelib chiqib, opera haqida gapirib berish.

Yakuniy nazorat (operadan bir parcha asarni ijro qilish)

1. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini kichik parchasini talabaga berilgan o‘z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma’noli, ifodali, badiiy fortepiano jo‘rligida kuylab berish yondosh partiyalar bilan birgalikda. (arioza yoki duet, trio)
2. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini parchasidan kelib chiqib, uni har bir opera partiyalari bilan birgalikda musiqiy va aktyorlik mahorati bilan uyg‘un holda, fortepiano jo‘rligida yoddan ijro etib berish.

5-6 chi semestr

Oraliq nazorat

1. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini talabaga berilgan o‘z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma’noli, ifodali, badiiy fortepiano jo‘rligida kuylab berish. (ariya, duet yoki ansambl)
2. O‘zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo‘lagini parchasidan kelib chiqib, opera haqida gapirib berish.

3. Talaba o'ziga berilgan operadagi partiyasi, qahramoni haqida taxliliy tushunchasini gapirib berish.

Yakuniy nazorat (operadan bir parcha asarni ijro qilish)

1. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo'lagini talabaga berilgan o'z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma'noli, ifodali, badiiy obraz sifatida fortepiano jo'rligida kuylab berish. Berilgan opera bo'lagini barcha ishtirokchilar bilan birgalikga ijro etib berish.

2. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir bo'lagini barcha qahramonlar bilan birgalikda yakka va ansambl ko'rinishida to'laqonli taqliliy nuqtai nazarda gapirib berish.

7-8 chi semestr

Oraliq nazorat

1. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir aktdan bo'lagini talabaga berilgan o'z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma'noli, ifodali, badiiy obraz sifatida fortepiano yoki orkestr jo'rligida kuylab berish. (ariya, duet yoki ansambl)

2. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir aktdan kelib chiqib, opera haqida gapirib berish.

3. Talaba o'ziga berilgan operadagi partiyasi, qahramoni va opera haqida taxliliy tushunchasini gapirib berish.

Yakuniy nazorat (operadan bir akti ijro qilish)

1. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir aktda talabaga berilgan o'z ovoz partiyasini vokal musiqasini yoddan kuylash. Bunda opera partiyasini ma'noli, ifodali, badiiy obraz sifatida fortepiano yoki orkestr jo'rligida kuylab berish. Berilgan operaning bir aktida barcha ishtirokchilar bilan birgalikga ijro etib berish.

2. O'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining opera asarlaridan tanlab olingan bir akti barcha qahramonlar bilan birgalikda yakka va ansambl ko'rinishida to'laqonli taqliliy nuqtai nazarda gapirib berish.

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Muxamedova G. Opera tayyorlovi. T., 2022.
2. Muxamedova G. Xonandaning aktyorlik mahorati, T., 2009

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini

birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.

3. Mirziyoyev SH.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b
4. Mirzoyeva M. Analiz ispolnyaemix proizvedeniy .V sb. "Voprosi vokalnoy pedagogiki", vqr. 2. M., 1964.-2016
5. Muxamedova G.X. Opera tayyorlovi. Fan ziyosi nashriyoti. T., 2022.
6. 100 опер. Г.Абрамовский, М.Арановский, И.Белецкий,Л.Данько,, изд., «Музыка». Ленинград., 1968.616 стр.
7. Об искусстве актёра-певца. Станиславский К.С., Немирович –Данченко.
8. Маска и душа. Ф.И.Шаляпин. Изд., «Искусство» Москва.,1973. 141 стр.
9. 100 великих театров мира. Капиталина Антоновна Смолина. Изд., «ВЕЧЕ» 2001.,336 стр.
10. Станиславский и опера. П.И.Румянцев. Изд., «Искусство».М., 1969.
11. Жизнь в музыкальном театре. Э.И.Каплан. Изд., «Музыка». Л., 1969.
12. О музыкальном театре. В. Фильзенштейн. Изд., «Искусство».М., 1984.408 стр.
13. Психология художественного творчества. П.М. Якобсон. Изд., «Искусство».М., 1964.87 стр.

Axborot manbalari

1. www.etmus.ru
2. www.ruplace.ru
3. <http://www.ethnomusicology.org>
4. <http://www.eduard.alekseyev.org>
5. www.folkinfo.ru
6. www.classicmusic.uz
7. <http://www.youtube.com>
8. <http://portasound.ru/music-search/musiq-a-olami>

7. Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**
Tuzuvchi:
Pardayeva N.S.- "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida katta

	o'qituvchisi
9.	Taqrizchi: Muxamedova G.X.- “Akademik xonandalik va opera tayyorlovi” kafedrası professori Abdullayeva A.K.- “Akademik xonandalik va opera tayyorlovi” kafedrası professori